

**G'O'ZANING GULLASH, KO'SAKLARNING OCHILISH DAVRIGA
KIRISHIGA HAMDA HOSILDORLIKKA TOMCHILATIB
SUG'ORISHNING TA'SIRI.**

S.Jahonov

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion
rivojlanish instituti magistranti.*

Annotatsiya: *o'zimizda va xorijda laboratoriya, dala sharoitida o'tkazilgan tajriba yakunlariga ko'ra shu narsa ma'lumki, qishloq xo'jalik ekinlarini yuzadan va yomg'irlatib sug'orish texnologiyasida suvni o'simlikka tomchilatib berilganda yuqori samara berishi aniqlangan.*

Tomchilatib sug'orilgan variantlarda, g'o'zaning gullashi va ko'saklarning ochilishi ishlab chiqarishda qabul qilingan egatlab sug'orish usuliga nisbatan ertaroq boshlandi.

Kalit so'zlar: *tomchilatib sug'orish, CHDNS, nisbiy namlik, harorat*

Abstract: *According to the results of the experiments carried out in laboratory and field conditions in our country and abroad, it is known that in the technology of surface and rain irrigation of agricultural crops, it is found that the water is given drop by drop to the plant.*

In drip irrigated variants, cotton flowering and boll opening started earlier than in drip irrigation method adopted in production.

Keywords: *drip irrigation, CHDNS, relative humidity, temperature*

Z.Artukmetov va X.Sheraliyevlarning [143; 148-153-b.] ta'kidlashicha, g'o'zani hosildorligi uning o'sishi-rivojlanishi fazalari bo'yicha suv bilan qanday darajada ta'minlanganiga bevosita bog'liqdir. Suvga bo'lgan talabning kritik davri o'simlikning gullash va hosil to'plashdan pishish davrigacha davom etadi. Respublikaning markaziy iqlim mintaqasida yetishtirilayotgan paxtani sizot suvlari yaqin (0,5-1 m) joylashgan o'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida 2-3 marta sug'orish yetarli bo'lsa, chuqur joylashgan (3m) bo'z tuproqlarda 6-8 martagacha sug'orish talab etiladi. Bu esa tuproq namligini CHDNSga nisbatan 70-75-70%dan kam bo'lmagan ko'rsatkichda ta'minlash imkonini berishini tavsiya etgan.

G'o'zaning gullashi, hosil tugish fazasi Surxon-Sherobod vohasida ancha issiq vaqtlarga to'g'ri keladi. Bu davrda (iyun-iyul) o'rtacha o'n kunlikdagi harorat 29,1 dan 32,7 °C o'rtasida o'zgarib turadi. O'rtacha sutkalik harorat esa bunda yuqori bo'ladi. Nisbiy namlik sutkaning kunduz kunlarida 10-15 foizga tushadi.

Shuning uchun ham g'ozani bu davrda cheklangan dala nam sig'imiga nisbatan 70-75 foiz bulganda sug'orishni tashkil etish va sifatli sug'orish uning o'sishi va rivojlanishida muxim ahamiyat kasb etadi.

O'zimizda va xorijda laboratoriya, dala sharoitida o'tkazilgan tajriba yakunlariga ko'ra shu narsa ma'lumki, qishloq xo'jalik ekinlarini yuzadan va yomg'irlatib sug'orish texnologiyasida suvni o'simlikka faollashtirib berilganda yuqori samara berishi aniqlangan.

Tomchilatib sug'orilgan variantlarda, g'ozaning gullashi va ko'saklarning ochilishi ishlab chiqarishda qabul qilingan egatlab sug'orish usuliga nisbatan ertaroq boshlandi.

Tomchilatib sug'orishda suv berilganda o'simlik hujayralarini kislorod bilan boyitadi. Suvning biologik va termik faollik darajasining barqarorligini oshirish imkonini beradi.

Olingan ma'lumotlardan shunday xulosaga kelib chiqadiki, g'ozani tomchilatib sug'orish uning o'sishi, rivojlanishini, erta pishib yetilishini tezlashtiruvchi texnologiyadir.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra 50-100% gullash fazasiga kirishi o'rganilgan variantlar ichida 3-variantda eng yuqori bo'ldi. G'ozaning kichik me'yordalarda sug'orilishi, egat boshidan to oxirigacha suvni bir xil me'yorda berilishi, tuproq unumdorligining saqlanishi, ozuqa moddalarining daladan chiqib ketmasligi, chuqur qatlamlarga singib isrof bo'lmasligi oqibatida o'g'itlarning samaradorligi oshganligi uchun, g'ozaning gullash ayniqsa pishish fazasi ertaroq boshlanishiga olib keldi. Tadqiqotning 3-variantidagi g'ozaning 50 va 100% gullash fazasiga kirishi oddiy egatlab sug'orilgan 1-variantga nisbatan 15-18% yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Tajribada 2023-yil 16-avgustdagi ma'lumotlarga ko'ra NPK-100% berilgan egatlab sug'orish usulida sug'orilgan 1-variantda ko'saklarning ochilish davriga kirishi 71 foizni tashkil etgan bo'lsa, tomchilatib sug'orilgan 3-variantda bu ko'rsatkich 85 foizni tashkil etdi. Shunga o'xshash ma'lumotlar 2022-yilda ham olindi.

2022-2023-yillarda o'rtacha terimlar bo'yicha paxta hosildorligi. s/ga

№	1-terim		2-terim		3-terim		Umumiy hosildorlik, s/ga
	hosildorlik	umumiy hosildorlikka nisbatan, %	hosildorlik	umumiy hosildorlikka nisbatan, %	hosildorlik	umumiy hosildorlikka nisbatan, %	
Tuproqning sug'orish oldi namligi 70-75-65							
1.	16,6	49,8	11,9	35,7	4,8	14,3	33,3
2.	20,0	50,4	14,3	36,0	5,4	14,6	39,7
3.	21,6	51,7	14,1	33,7	6,1	14,6	41,8
4.	23,7	51,0	15,2	32,8	7,5	16,2	46,4

Tomchilatib sug'orishning g'ozaning o'sishi va rivojlanishiga ta'siri

Variantlar	1-iyunda		1-iyulda			1-avgustda			1-sentyabrda	
	O'simlik bo'yi, sm	Chin barglar soni	O'simlik bo'yi, sm	Hosil bo'g'ini, dona	Hosil element lari, dona	O'simlik bo'yi, sm	Hosil bo'g'ini, dona,	Shu jumladan ko'sagi	Ko'saklar soni, dona	Shu jumladan ochilgani
1.	19,0	6.1	44.2	12.5	13.5	76.3	17.4	10.2	17.0	13.3
2.	18.8	5.9	43.0	12.5	13.5	75.0	16.1	10.0	16.5	12.5
3.	19.4	6.5	46.5	13.3	14.8	82.5	18.5	12.2	18.5	17.1
4.	19.1	6.2	45.4	13.1	14.2	79.8	18.1	11.4	17.9	16.7

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Z.A.Artukmetov, X.Sh.Sheraliyev - "Ekinlarni sug'orish asoslari". Toshkent 2006 yil. 148-153-b
2. A.Z.Artikov - "Капельное орошение тонковолокнистого хлопчатника" "Jayxun" Termiz-2006. 134-136 b.